

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova

Amaliy ishlataladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash 734

G.N.Shokirova

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash 738

M.A.Abdurahimova

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish 742

B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish 745

U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi 749

G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 754

D.Sh.Sultonov

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati 757

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration) 762

O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva

Agrotourism as a factor of sustainable rural development 765

I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari 770

R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova

Ulkan to'g'onlar geografiyasи va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar 778

R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov

Farg'ona vodiysi relefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish 783

A.A.Xamidov

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi 788

R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari 793

N.O'.Komilova

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi 798

J.J.Mamatisakov

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni 803

D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish 807

L.M.Saydaliyeva

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari 813

A.E.Madraximov

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar 819

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li 822

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM" 827

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi 831



УО'К: 635.914

SANSEVIYERIYA (SANSEVIERIA) O'SIMLIGINING AYRIM BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

НЕКОТОРЫЕ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ САНСЕВИЕРИЯ (SANSEVIERIA) И ТЕХНОЛОГИЯ ЕГО ВЫРАЩИВАНИЯ

SOME BIOECOLOGICAL FEATURES OF THE SANSEVIERIA PLANT AND THE TECHNOLOGY OF ITS CULTIVATION

Abdullayeva Maxsudaxon To'lanovna 

Farg'ona davlat universiteti, botanika, bioteknologiya va ekologiya kafedrasи katta o'qituvchi (PhD)

Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi 

Farg'ona davlat universiteti, botanika, bioteknologiya va ekologiya kafedrasи o'qituvchi

Annotatsiya

Maqlada vatani tropik hamda subtropik mintaqasi hisoblangan manzarali o'simlik-Sansevieria trifasciataning bioekologiyasi, foydali xususiyatlari, mintaqamiz sharoitida yetishtirish va ko'paytirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu o'simlikdan xalq tabobatida, fitodizayn yaratishda, binolarni ko'kalamzorlashtirishda foydalilanildi. Gulchilikda o'ziga xos qalin barglari, chiroyli rangi uchun qadrlanadi O'simlikning asosiy foydali xususiyati binodagi atmosfera havosining sifati va tozaligini ta'minlashdir.

Tadqiqotning maqsadi. Sansevieriyaning bioekologik xususiyatlari, mintaqamiz sharoitida ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish, o'g'ilash me'yorlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot Sansevieria trifasciata turida olib borildi, tajriba yo'lli bilan vegetativ ko'paytirish usulidan foydalanildi.

Аннотация

В статье рассматриваются виды, полезные свойства и технология выращивания в наших краях Sansevieria trifasciata, как декоративная растения, которая центр происхождения является тропические и субтропические районы.

Это растение используют в народной медицине, при создании фитодизайна, озеленении помещений. Культура привлекает цветоводов своими прямыми кожистыми листьями с необычными рисунками и узорами. Основное полезное свойство растения-обеспечение качества и чистоты атмосферного воздуха в помещении.

Цель исследования. Биоэкологические особенности сансевиерии заключаются в разработке технологии размножения в условиях нашего региона, изучении норм внесения удобрений. Исследование проводилось на роду Sansevieria trifasciata с использованием метода вегетативного размножения экспериментальным путем.

Abstract

The article discusses the types, useful properties and technology of growing Sansevieria trifasciata in our region, as an ornamental plant, which the center of origin is tropical and subtropical areas.

This plant is used in medicine, when creating a phytodesign, landscaping of premises. The culture attracts flower growers with its erect leathery leaves with unusual patterns. The main useful property of the plant is to ensure the quality and purity of atmospheric air in the room.

The purpose of the study. The bioecological features of sansevieria are the development of reproduction technology in the conditions of our region, the study of fertilizer application standards. The study was conducted on Sansevieria trifasciata using the method of vegetative reproduction experimentally.

Kalit so'zlar: Sansevieria trifasciata, vegetativ organlar, dorivorlik xususiyati, mineral o'gitlar, ildizpoya, benzol, toluol, trixloretilen

Ключевые слова: Sansevieria trifasciata, вегетативные органы, лечебные свойства, минеральные удобрения, боковые побеги, бензол, толуол, трихлорэтилен.

Key words: *Sansevieria trifasciata*, vegetative organs, medicinal properties, mineral fertilizers, rhizome, benzol, toluol, trixloretilen.

KIRISH

Sanseviyeriya (lot. *Sansevieria*-Sparjalar (*Asparagaceae*) oиласига мансуб бо'либ, декоратив bargli доимiy yashil ko'п yillik o'simlik. Xalq orasida turli nomlari mavjud: "leopard nilufari", "qaynona tili", "cho'rtan dumi", "ilon terisi". O'simlik barglarining uzunligi 1,5-2 m, kengligi 10 sm gacha yetadi. Tabiatda ushbu o'simlik quruq, toshli regionlarda uchraydi. Tropik va subtropik Afrika, Hindiston, Madagaskar, Indoneziya, Janubi Florida tarqalgan. Gullari mayda, hushbo'y, uy sharoitida deyarli gullamaydi. Asosan manzarali barglari uchun o'stiriladi. Turli ko'rinishga ega 60 ga yaqin navlari mavjud, gulchilikda asosan 10 yaqin turi ko'п yetishtiriladi [1].

Ular bir-biridan yaproqlarining o'lchami, rangi, yaproq chetlaridagi "bo'yoqlari" kabi belgilari bilan farqlanadi. Madaniylashgan ommabop turlariga *Sansevieria grandis*, *Sansevieria gracilis*, *Sansevieria hyacinthoides*, *Sansevieria dooneri*, *Sansevieria trifasciata*, *Sansevieria liberica*, *Sansevieria kirkii*, *Sansevieria future*, *Sansevieria robusta*, *Sansevieria cylindrica* navlarni misol keltirish mumkin.

O'simlikning asosiy foydali xususiyati binodagi atmosfera havosining sifati va tozaligini ta'minlashdir. Ayniqsa, uch chiziqli sanseviyeriya (*Sansevieria trifasciata*) binodagi deraza qoplamlarining plastigidan ajraladigan zararli moddalardan havoni tozalash xususiyatiga ega. U - o'simlik filtr bo'lib, NASAning "Toza havo" tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra [2], sanseviyeriya atmosfera havosiga kislorod ajratib, uglerod dioksidini hamda inson organizmi uchun zararli bo'lgan benzol, toluol, trixloretilen kabi ko'plab moddalarni yutish xususiyatiga ega. Tunda ham karbonat angidrid gazini yuta oladigan kam sonli o'simliklar qatoriga kiradi, u kun davomida, shuningdek tunda ham bir me'yorda atmosfera havosini formaldegiddan tozalay oladi. Ekologik nuqtai nazaridan 2-3 dona o'simlik xonadoningiz atmosferasini stafilokokk (30-40%), sarina (45-70%), streptokokk (53-60%) kabi mikroorganizmlardan tozalash uchun kifoya qiladi [3].

Sanseviyeriyadan xalq tabobatida ham foydalanish mumkin: yaproqlari tarkibidagi "suyuqlik" qulquning otit kasalligini davolaydi. Barglaridan yaralarni tuzatuvchi, ildizidan stimullashtiruvchi va mustahkamlovchi vosita sifatida foydalaniladi. Bargalarini kuydirishdan ajraladigan "tutun" bosh og'rida yordam beradi.

ISHNING MAQSADI

Tadqiqotning maqsadi. Sanseviyeriyaning bioekologik xususiyatlari, mintaqamiz sharoitida ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish, o'g'itlash me'yorlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot *Sansevieria trifasciata* turida olib borildi, tajriba yo'li bilan vegetativ ko'paytirish usulidan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUXOKAMASI

Ushbu o'simlikdan gulchilikda fitodizayn yaratishda, binolarni ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Gulchilikda o'ziga xos qalin barglari, chirolyi rangi uchun qadrlanadi, shuningdek sanseviyeriya ortiqcha parvarishni talab qilmasligi bois uni o'stirish uchun maxsus bilim shart emas. Yaxshi parvarish qilinsa, uy sharoitida ham tez o'sadi. Yorug'sevlar, ammo soyada ham o'sa oladi. Gul uchun eng qulay joy janub yoki g'arbgaga qaragan deraza tokchasi hisoblanadi, yoz mavsumi kun o'rtasida kuchli quyosh nurlaridan biroz himoyalash zarur. Suvsizlikka, yelvizakka chidamli. O'g'itlashga muxtoj emas, ammo me'yorda berilgan o'g'it ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'simlikni ko'п miqdorda sug'orilishi ildizlarini chirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tajribada "Bona-forte" suyuq mineral o'g'itlaridan foydalanildi. Bunday o'g'itlar foydalanish uchun qulay, tarkibida o'simliklar o'sishi va rivojlanishi uchun kerakli elementlar -N, P, K, mikroelementlar, o'sish stimulyatori va vitaminlar mavjud. Bunda "kaktus va sukkulentlar uchun" yoki "dekorativ bargli o'simliklar uchun" seriyasidan foydalaniladi. Ta'kidlash joizki, ushbu o'simlikka kam miqdorda-1 oy bir marta, bahordan kuzgacha o'g'it berish kifoya. Bunda 5 ml miqdordagi suyuq mineral o'g'it 1-1,5 l suvga aralashtirilib, sug'orish davomida o'simlik ildizlari orqali, 1 oyda 1 marta barglari orqali aerozol holatda qo'llanildi. Azot miqdori ortib ketsa, o'simlikning chirolyi olachipor rangi o'zgarib, to'liq yashil rangga o'zgarishi mumkin. O'simlik ko'chirib o'tkazilganida yoki qalamchalari ildiz chiqargach, tuproqqa ekilganida 2 haftagacha o'g'it

EKOLOGIYA

qo'llash mumkin emas. Shuningdek, mineral o'g'itlarlarni qo'llash me'yorlari kuz-qish mavsumida qisqartiriladi.

Sansevieria trifasciatani vegetativ usulda ko'paytirish qulay bo'lib, buning uchun barglaridan foydalaniladi. Tajribada 2-3 yillik Sansevieria trifasciata o'simligining barglaridan foydalanildi. Barg plastinkasi 7-15 sm uzunlikdagi bo'laklarga kesib olindi. Substrat sifatida tuproq va suvdan foydalanib, unga "qalamchalar" aktivlangan ko'mir tabletkalari bilan 17 iyul sanasida solindi. Suvga solingan namunalar 2-4 haftada, tuproqqa ekilgan namunalar 5-8 haftada ildiz chiqardi. Namunalar soni birinchi holatda 3 ta ikkinchi holatda 7 ta bo'lib, ikkala holatda ham 1-2 tadan "nobud bo'ldi" (1-jadval).

Aytish mumkinki, o'simlikni ko'paytirish uchun eng qulay vaqt bahor fasli bo'lib, vegetativ ko'paytirishni kuzning oxirgi oylarigacha amalga oshirish mumkin. Qish vaqtida bu jarayon ko'proq vaqtini talab etadi, ba'zan kutilgan natijani bermaydi.

1-jadval***Sansevieria trifasciata o'simligini vegetativ ko'paytirish texnologiyasi.***

Substrat	Namuna	Namunaning uzunligi	Vaqti	Ildiz chiqargan muddati (yo'z faslida)	Ildiz chiqargan muddati (qish faslida)
Tuproq	Barg plastinkasi	7-15 sm	17 iyul	2-4 hafta	4-6 hafta
Suv	Barg plastinkasi		17 iyul	5-8 hafta	8-10 hafta

Sansevieria trifasciata ildizni bo'laklarga bo'lish yoki ildizpoyalarini ko'chirish yo'li bilan ham ko'paytiriladi. Bu usul o'simlikni ko'paytirish uchun qulay bo'lib, bunda o'simlik ildizi "o'sish nuqtasiga" ega bo'lgan qismlarga ajratiladi va alohida gultuvaklarga ekiladi.

XULOSA

1. *Sansevieria trifasciata* qalamchalar yordamida ko'paytirilganida, qalamchalarining uzunligi 7-15 sm dan kam bo'lmasi kerak. Bunda ularning ildiz chiqarishi uchun 2 haftadan 1-2 oygacha muddat talab etiladi. Ushbu muddat yil fasliga bog'liq.
2. Qalamchalar kesib olinganida namuna bir oz muddat quritiladi, sababi substrat sifatida suvdan foydalanilganida bargidan ajraladigan modda ildiz chiqarishni sekinlashtirishi yoki qalamchani chirishiga olib kelishi mumkin.
3. Qalamchalarni ildiz chiqarishi uchun substrat sifatida suv yoki tuproqdan foydalanish mumkin. Suvdan foydalanilganda qalamchalar chirimasligi uchun unga 1-2 dona aktivlangan ko'mir tabletkalari tashlanadi (1-B₂ rasm).
4. Ildiz chiqarguncha qalamchalarda barglari bir oz sarg'ayishi, suvsizlanishi mumkin. Idishdagi suv almashtirilmaydi, kamaysa ustiga qo'shimcha suv quyish mumkin.
5. Ildiz chiqargach, qalamchalar uncha katta bo'lmagan stakan yoki kichik gultuvaklarga, universal gruntga perlit yoki vermiculit aralashtirib, alohida-alohida ekiladi (1-V rasm). Kattaroq idishga ekish maqsadga muvofiq emas, bunda ildiz tizimini rivojlanishi uchun o'simlik katta kuch sarflaydi, natijada o'simlikning yer ustki qismi yaxshi rivojlanmaydi (1-G rasm).
6. Qalamchalar ildizlaridan yangi o'simlik unib chiqishiga biroz vaqt talab qilinadi.
7. O'simlikni ildizpoyalarni bo'laklarga bo'lish yo'li bilan ko'paytirish qulay, barg plastinkalari yordamida ko'paytirilganida yangi o'simlik unib chiqquniga qadar 5-6 oy muddat talab qilinishi mumkin.

1-rasm.

			1
			2
A-umumiy ko'rinishi		B-vegetativ ko'payishi: B1-barg plastinkasi yordamida qalamchalar orqali ko'payishi; B2-ildizi orqali bo'laklarga bo'linib ko'payishi	
V-ildiz chiqargan qalamchalari		G-yosh nihollari	

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- ru.wikipedia.org
- <https://flowers.ua/ru/articles/sansevieriya>
- <https://flowerstyle.com.ua/>
- Tadjibayeva Lolaxon Akbarali Qizi (2023). Bazella rubra. Useful properties and cultivation technology. JOURNAL OF AGRICULTURE & HORTICULTURE, 3(4), 109–112.2023
- Tadjibayeva L, Xoldoraliyeva S (2023). Popular indoor plants recommended for use in preschools and their characteristics. Journal of Advanced Scientific Research (82-85), 2023
- Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi. Yirik shaharlarda ekologik soʻf muhit yaratishda manzaralari o'simliklarning o'rni, ularni o'ziga xos xususiyatlari. Modern Science and Scientific studieset, 2022 yil.
- Александрова М. С. Среди цветов: Сборник. — М.: Дом, 1996. — С. 156—158. — 304 с. — 20 000 экз. — [ISBN 5852013250](#).
- Головкин Б. Н. и др. Комнатные растения. — М.: Лесная промышленность, 1989. — С. 340—343. — 431 с. — 65 000 экз. — [ISBN 5712001780](#).
- Иванина Л. И. Жизнь растений : в 6 т. / гл. ред. А. Л. Тахтаджян. — М. : Просвещение, 1982. — Т. 6 : Цветковые растения / под ред. А. Л. Тахтаджяна. — С. 176-177. — 543 с. — 300 000 экз.
- Берёзкина И. . Библия комнатных растений. — М.: Эксмо, 2008. — С. 214—215. — 256 с. — [ISBN 978-5-699-25341-8](#).
- Таджибаева, Л. А. (2023). ЗНАЧЕНИЕ "ЗЕЛЕНОЙ ЗОНЫ" В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ, АНТРОПОГЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ. *Science and innovation in the education system*, 2(9), 29-33.
- Tadjibayeva, L. (2023). SHAHAR HUDUDLARIDA ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA SALBIY TA'SIRI. *Наука и инновация*, 1(5), 67-70.
- Xoldoraliyeva, S. (2023). INDOOR PLANTS THAT CANNOT BE USED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR CHARACTERISTICS. *Наука и инновация*, 1(11), 182-184.